O‘ZBEK JURNAL DISKURSIDA TA’SIRCHANLIKNI YUZAGA KELTIRUVCHI TIL VOSITALARI VA RITORIK SO‘ROQ GAPLARNING USLUBIY-PRAGMATIK VAZIFALARI

Jo‘rayeva Nilufar Shavkat qizi
Magistratura 2-kurs talabasi, Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi.
e-mail: *n.jorayeva@edu.uz*
https://doi.org/10.5281/zenodo.22748817

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek jurnal-publitsistik matnlarida ta’sirchanlikni ta’minlovchi til birliklari hamda ritorik so‘roq gaplarning uslubiy-pragmatik salohiyati o‘rganiladi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, o‘zbekshunoslikda ritorik so‘roq odatda badiiy nasr yoki nazm namunalarida kuzatilib kelingan, ammo uning davriy matbuot va jurnal maqolalaridagi vazifaviy tabiati alohida tizim sifatida deyarli chuqur yoritilmagan.*

Ishning ilmiy yangiligi - jurnal matnlarida ritorik so‘roqning bajaradigan olti xil pragmatik yo‘nalishini (fikrga chorlash, muammoni ko‘zga tashlash, muallif pozitsiyasini bildirish, dalilni kuchaytirish, tanqidiy baho berish va hissiy zaryad hosil qilish) aniq mezonlar asosida farqlab, ularning matn tuzilishidagi o‘rniga bog‘liq holda tavsiflashda ko‘rinadi.

Tadqiqotda tavsifiy, kontekstual-pragmatik va uslubiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kuzatishlar natijasida ritorik so‘roq gap sarlavha, kirish va yakuniy qismlarda muntazam qo‘llanib, matnning ta’sir kuchini oshiruvchi yetakchi vositaga aylanishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *ritorik so‘roq gap, ta’sirchanlik, publitsistik uslub, jurnal diskursi, pragmatika, ekspressivlik, uslubiy vositalar, adresatga ta’sir.*

Аннотация. *В данной работе рассматриваются языковые единицы, формирующие экспрессивность узбекских журнально-публицистических текстов, а также стилистико-прагматический потенциал риторических вопросительных предложений. Актуальность обусловлена тем, что в узбекском языкознании риторический вопрос традиционно исследовался на материале художественной прозы и поэзии, тогда как его функционирование в периодической печати системно не описано. Новизна работы состоит в разграничении шести прагматических направлений функционирования риторического вопроса в журнальных текстах с учётом их места в композиции текста.*

Применены описательный, контекстуально-прагматический и стилистический методы анализа.

Ключевые слова: *риторический вопрос, экспрессивность, публицистический стиль, журнальный дискурс, прагматика, стилистические средства.*

Abstract. *This paper looks at the linguistic units that build expressiveness in Uzbek press and magazine texts, together with the stylistic-pragmatic potential of rhetorical questions. The topic is relevant because Uzbek linguistics has mostly studied the rhetorical question on fiction material, while its role in periodical press has not been described as a coherent system. The novelty lies in distinguishing six pragmatic directions the device takes in journal texts, linked to where it sits in the text structure. Descriptive, contextual-pragmatic and stylistic analysis were used.*

Keywords: *rhetorical question, expressiveness, publicistic style, journal discourse, pragmatics, stylistic devices.*

KIRISH

Gazeta-jurnal sahifalarini varaqlab ko‘rsangiz, deyarli har bir tahliliy maqolada muallif o‘quvchiga oddiygina xabar yetkazish bilan cheklanmasligini sezasiz - u bilan bahslashadi, uni o‘ylantiradi, ba’zan hatto koyiydi ham. Publitsistika ana shunday ikki yoqlama vazifani bajaradi: bir tarafdan faktga tayanadi, ikkinchi tarafdan esa o‘z pozitsiyasini, xohlaydimi-yo‘qmi, matn ichiga singdirib yuboradi. Shu ikkinchi vazifani ado etishda muallifning qo‘lidagi eng qulay qurollardan biri - ritorik so‘roq gap. Ko‘rinishidan savol, mazmunan esa aslo javob kutmaydi; aksincha, tasdiq yoki inkorni odatdagidan ancha bo‘yoqdorroq qilib yetkazadi.

Bu masala o‘zbek tilshunosligida, aytish mumkinki, chetlab o‘tilmagan. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va M.Qurbonova birgalikda tayyorlagan darslikda ritorik so‘roqning gap turlari tizimidagi o‘rni ko‘rsatilgan [1]. Sh.Rahmatullayev bu masalaga uslubiyat nuqtayi nazaridan yondashgan [2], M.Yo‘ldoshev esa uni badiiy matnning ekspressiv unsuri sifatida talqin qilgan [3]. Gap modalligi masalasiga qiziqqanlar N.Mahmudov va A.Nurmonovning grammatika bo‘yicha ishiga murojaat qilishlari mumkin [4]. Yaqinroq yillardan misol keltirsak, Sh.Jumaniyozov Tog‘ay Murod nasri asosida ham shunga o‘xshash kuzatishlar olib borgan [5].

Lekin diqqat qilinsa, bu ishlarning deyarli barchasi badiiy adabiyot - nasr yoki she’riyat - chegarasida qolib ketadi. Jurnal maqolasi, sharh, tahliliy material kabi publitsistik janrlarda ritorik so‘roq qanday ishlaydi, qaysi o‘rinlarda kuchliroq, qaysi o‘rinlarda unchalik samara bermaydi - bu savollar hali yetarlicha javob topmagan, desak xato bo‘lmaydi. Mana shu bo‘shliqni to‘ldirish ehtiyoji ushbu ishning yozilishiga sabab bo‘ldi. Shunga ko‘ra ishning maqsadini ikki jumlada ifodalash mumkin: birinchidan, jurnal matnida ta’sirchanlikni ta’minlaydigan asosiy til vositalarini ko‘rsatib berish; ikkinchidan, ritorik so‘roq gap aynan qanday vazifalarni - fikrlashga undash, muammoni ko‘zga tashlash, muallif munosabatini bildirish, dalilni kuchaytirish, tanqid qilish, hissiy zaryad hosil qilish - bajarishini misollar orqali ko‘rsatish. Bundan kelib chiqib, vazifalar ham o‘z-o‘zidan aniqlanadi: ekspressivlikning lisoniy tabiatini ochish, ta’sirchanlikka xizmat qiladigan vositalarni sathma-sath ajratish, ritorik so‘roqning matn qaysi qismida ko‘proq uchrashini kuzatish va, nihoyat, uning vazifalarini tartibga solib berish.

TADQIQOT MATERIALI VA METODOLOGIYASI

Material sifatida jamiyat, ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayotga bag‘ishlangan tahliliy maqola va sharhlardagi tipik sintaktik-uslubiy qurilmalar tanlandi. Uch narsaga e’tibor qaratildi: matn publitsistik uslubga to‘g‘ri kelishi, unda muallifning o‘z pozitsiyasi sezilib turishi va tanlangan so‘roq konstruksiya kamida bitta ekspressiv vazifani bajarishi kerak edi. Metodlar borasida esa quyidagilarga tayanildi: tavsiflash - kuzatilgan hodisalarni tartibga solish uchun; kontekstual-pragmatik tahlil - ritorik so‘roqning aynan qaysi nutqiy vaziyatda qanday ishlashini ko‘rish uchun; stilistik tahlil - ekspressivlikni beruvchi vositalarning uslubiy bo‘yog‘ini ochish uchun. Bularga qo‘shimcha ravishda, ritorik so‘roqning matn qismlarida qanday taqsimlanish tendensiyasini ko‘rsatish maqsadida qisman qiyosiy yondashuvdan ham foydalanildi. Ta’kidlash kerakki, ish sifat-tavsifiy xarakterga ega - natijalar statistik ko‘rsatkich emas, balki tipologik tasnif shaklida beriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta’sirchanlik deganda biz matnning shunchaki ma’lumot berishdan tashqari, o‘quvchida hissiy-baholovchi munosabat uyg‘otish qobiliyatini nazarda tutamiz. Jurnal matnida bu xususiyat bir emas, uch sathda birdek namoyon bo‘ladi.

Leksik sathda gap avvalo baholovchi sifatlarga (dolzarb, achinarli, ibratli) va kuchaytiruvchi yuklamalarga (naq, hatto, faqat) boradi - aynan ular matnga sub'ektiv bo'yoq beradi. Masalan, "bu muammo naq o'n yildan beri hal qilinmay kelmoqda" jumlasidagi "naq" so'zchasi vaqtning cho'zilib ketganini bo'rttirib ko'rsatadi va o'quvchida bir xil turdagi bezovtalik uyg'otadi. Sintaktik sathga kelsak, bu yerda undov gap, ellipsis, so'z tartibi o'zgarishi, parallel qurilma, gradatsiya - va, albatta, ritorik so'roq gap - ekspressivlikning bosh manbayi hisoblanadi.

Ritorik so'roq boshqalardan shu jihati bilan ajralib turadi: unda bir vaqtning o'zida ikki qatlam bor - tashqi tomondan grammatik so'roq shakli, ichida esa tasdiq yoki inkor mazmuni yashiringan. Grafik-kompozitsion tomonga o'tsak - sarlavhaning so'roq shaklida qurilishi, qisqartirilgan abzaslar, kursiv yoki qalin harf bilan ajratilgan iboralar ham o'quvchi ko'zini tortadi.

Aytmoqchimanki, bu faqat bizga xos hodisa emas: rus tilshunosligida ham internet-nashr sarlavhalaridagi so'roq konstruksiyasi o'quvchini matnni ochishga undovchi kuchli vosita ekani alohida ko'rsatilgan [6]. O'zbek onlayn OAV materiallarida ham xuddi shu manzarani kuzatish qiyin emas.

Qiziq tomoni shundaki, ritorik so'roq gap jurnal matnida tasodifan qo'yilmaydi - u ko'proq uch nuqtada: sarlavhada, kirish abzasida va yakunda uchraydi. Sarlavhadagidek ("Yoshlarimiz nima uchun kitob o'qishni xohlamayapti?") u avvalo "ilgak" vazifasini o'taydi - o'quvchini matnni ochib o'qishga undaydi. Kirishdagi ritorik so'roq esa muammoni taqdim etib, uning naqadar jiddiy ekanini bir zumda his qildiradi. Yakunda esa xuddi bayroq tikkandek, o'quvchini o'z xulosasini chiqarishga chorlab, matnni kuchli nuqta bilan tugatadi. Demak, bu uch bosqichli joylashuv tasodif emas, balki matn kompozitsiyasi bilan ritorik so'roqning vazifasi orasidagi tabiiy bog'liqlikning natijasidir.

Endi to'plangan misollarga qaytsak - ular jurnal matnida ritorik so'roqning oltita asosiy yo'nalishda ishlayotganini ko'rsatadi.

Birinchidan, **fikrlashga undash bor.** Bu - muammoni tayyor holda hal qilib bermaslik, o'quvchini o'zi o'ylashga majburlash. "Xo'sh, biz bu boradagi mas'uliyatni kimga yuklaymiz?" - bu savolga matnda javob berilmaydi, u atayin ochiq qoldiriladi, o'quvchi esa xohlaydimi-yo'qmi, o'zicha javob izlay boshlaydi. Boshqacha aytganda, matn bilan "ichki suhbat" shu tarzda boshlanadi. Ikkinchi vazifa - **muammoni ko'zga tashlash.** "Nega hali-hanuz qishloq maktablarida malakali o'qituvchi yetishmaydi?" - bunday savol muammoni birinchi qatorlardanoq ko'tarib chiqadi va keyingi bayon uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Sarlavhada uchraganda bu ta'sir yanada kuchliroq bo'ladi. Uchinchisi - **muallif munosabatini bildirish.** Bu yerda muallif fikrini to'g'ridan-to'g'ri aytmaydi, savol ortiga yashirinadi. "Bunday beparvolikni yana qancha davom ettirish mumkin?" jumlasi ortida "bunga barham berish kerak" degan fikr yotibdi, lekin u ochiq aytilmagan - aynan shu narsa fikrni bir tomondan yumshoqroq, ikkinchi tomondan esa kuchliroq qilib ko'rsatadi. To'rtinchi o'rinda - **dalilni kuchaytirish, ya'ni ishontirish vazifasi turadi.** "Axir raqamlar o'z-o'zidan gapirib turibdi-ku, buni yana isbotlash kerakmi?" - bunday savol orqali muallif keltirilgan dalilga shubha qolmaganini ta'kidlaydi, o'quvchini esa go'yo o'zi bilan bir xulosaga kelayotgandek his qildiradi. Beshinchisi - **tanqid qilish.** Kinoya yoki achchiq piching bilan qo'shilganda ritorik so'roq tanqidiy ma'no kasb etadi: "Bu 'islohot' deganlari haqiqatan ham xalq manfaatini ko'zlab qilinganmi?" - bu yerda tirnoqcha ichidagi "islohot" so'zi va savol ohangi birgalikda kinoyaviy tanqidni yuzaga keltiradi. Va nihoyat, oltinchisi - **hissiy zaryad hosil qilish.**

“Bunday fojiani yana necha marta boshdan kechirishimiz kerak?” - bu gapda mantiqdan ko‘ra hissiyot ko‘proq, u o‘quvchida hayajon, achinish yoki g‘azab uyg‘otishga qaratilgan va ko‘pincha matnning eng “yuqori nuqtasi” bo‘lib xizmat qiladi. Shuni aytish kerakki, bu olti vazifa orasiga qattiq chiziq tortib bo‘lmaydi. Amalda bitta ritorik so‘roq bir vaqtning o‘zida ikki, hatto uchta vazifani birga bajarishi ham mumkin - aytaylik, muammoni ko‘zga tashlash bilan bir qatorda hissiyotni ham kuchaytirib yuboradi. Bizningcha, aynan shu polifunksionallik - bir vositaning bir necha ma’noni bir yo‘la ko‘tarib yurishi - ritorik so‘roqni jurnal matnida bunchalik samarali qilib qo‘yayotgan asosiy sabab.

Yana bir kuzatuv: ritorik so‘roq deyarli hech qachon yolg‘iz kelmaydi. U ko‘pincha takror, gradatsiya, parallel qurilma yoki kuchaytiruvchi yuklamalar bilan yonma-yon ishlaydi. Masalan, “Kim javobgar? Qachongacha shunday davom etadi? Nega hech kim bosh qotirmayapti?” kabi ketma-ket kelgan bir necha savol o‘sish samarasini beradi va matnning hissiy zichligini oshirib yuboradi. Demak, ritorik so‘roqni yakka holda emas, balki boshqa figuralar bilan birgalikda, yaxlit bir strategiya sifatida ko‘rish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Jurnal diskursi ichida ham bir xillik yo‘q - tahliliy maqola, sharh, intervyu, felyeton, ocherk kabi janrlarning har birida ritorik so‘roq boshqacha ishlaydi. Tahliliy maqolada u ko‘proq ishontirish va muammoni ko‘zga tashlash uchun xizmat qilsa, felyeton yoki ocherkda tanqid va kinoya bilan yonma-yon keladi. Intervyuda esa u muharrirning izohli qismlaridagi “yashirin ovozi” sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu farqlar shundan dalolat beradiki, ritorik so‘roqning pragmatik “og‘irligi” nafaqat uning o‘z shakliga, balki qaysi janr ichiga tushib qolganiga ham bog‘liq. Yana shuni aytish kerakki, zamonaviy o‘zbek internet-nashrlari va telegram-kanallarida ritorik so‘roqning sarlavha darajasida ishlatilishi bosma matbuotga qaraganda ancha ko‘proq. Sabab oddiy - onlayn muhitda o‘quvchi diqqatini bir necha soniyada tortish kerak, va bu tendensiya, aytish joizki, rus tilidagi internet-nashrlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham qayd etilgan.

Ritorik so‘roqning ta’sir kuchi ko‘pincha milliy-madaniy kontekstga bog‘lanib qoladi.

O‘zbek jurnal matnlaridagi ritorik so‘roqlar ba’zan xalq maqollariga yoki an’anaviy qadriyatlarga ishora qiladi - masalan, “ota-bobolarimiz aytganidek, ilm-u hunarsiz yashab bo‘larmikan?” kabi. Bunday jumla o‘quvchi ongida tezroq va chuqurroq iz qoldiradi, chunki u tanish, “o‘zimizniki” bir narsaga tayanadi. Aytish kerakki, bunday konstruksiyalarni boshqa tilga o‘girishda faqat grammatik to‘g‘rilikni emas, balki shu madaniy-pragmatik zaryadni ham saqlab qolish kerak bo‘ladi - bu esa allaqachon alohida tarjimashunoslik masalasiga aylanib ulguradi.

Yuqoridagilarni bir necha bandda jamlab ko‘raylik. Birinchidan, jurnal matnidagi ta’sirchanlik leksik, sintaktik va grafik-kompozitsion sathlarning birgalikdagi ishi natijasida yuzaga keladi. Ikkinchidan, shular orasida ritorik so‘roq eng “og‘ir” pragmatik yukni ko‘taradi.

Uchinchidan, uning olti vazifasi matndagi o‘rniga qarab bir xilda emas, balki har xil darajada ishga tushadi. To‘rtinchidan, bu vazifalar ko‘pincha bir-biriga o‘ralashib, boshqa ekspressiv vositalar bilan birgalikda ishlaydi.

Beshinchidan esa, janr va nashr turi - bosmami, onlaynmi - ritorik so‘roqning qanchalik tez-tez va qanday maqsadda ishlatilishiga ta’sir qiladi.

Yuqoridagi kuzatishlarni yaqqolroq tasavvur qilish uchun ritorik so‘roqning vazifalari, ularning lisoniy ko‘rsatkichlari va matndagi tipik o‘rni 1-jadvalda jamlandi.

№	Pragmatik vazifa	Asosiy lisoniy ko‘rsatkich	Matndagi tipik o‘rni
1	Fikrlashga undash	ochiq javobsiz qoldirilgan savol, “xo‘sh”, “nima deysiz”	matn o‘rtasi
2	Muammoni ko‘zga tashlash	“nega”, “nima uchun” so‘roq olmoshlari	sarlavha, kirish
3	Muallif munosabatini bildirish	modal so‘zlar, “-mi”, “-chi” yuklamalari	matn davomida
4	Dalilni kuchaytirish	“axir”, “-ku” kuchaytiruvchi vosita	dalil keltirilgan qism
5	Tanqid qilish	kinoyaviy tirnoqcha, sarkastik leksika	tanqidiy qism
6	Hissiy zaryad hosil qilish	undov ottenkali so‘roq, gradatsiya	xulosaviy qism

1-jadval. Ritorik so‘roq gaplarning jurnal diskursidagi pragmatik vazifalari tasnifi.

XULOSA

O‘tkazilgan kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, o‘zbek jurnal matnlarida ta’sirchanlik leksik, sintaktik va grafik-kompozitsion vositalarning birgalikda ishlashi natijasida vujudga keladi, ular orasida ritorik so‘roq gap alohida o‘rin egallaydi. U shunchaki sintaktik figura bo‘lib qolmay, matn strategiyasining muhim bo‘g‘ini sifatida sarlavha, kirish va yakun qismlarida izchil qo‘llanib, o‘quvchi bilan bir turdagi “yashirin muloqot” o‘rnatadi.

Tadqiqot davomida ritorik so‘roqning oltita asosiy vazifasi - fikrlashga undash, muammoni ko‘zga tashlash, muallif munosabatini bildirish, dalilni kuchaytirish, tanqid qilish va hissiy zaryad hosil qilish - aniqlandi hamda misollar orqali izohlandi.

Bu vazifalarning ko‘pincha bir-biriga chirmashib, polifunksional tarzda namoyon bo‘lishi ritorik so‘roqni jurnal matnlaridagi eng kuchli uslubiy-pragmatik vositalardan biriga aylantiradi. Ishning amaliy qiymati shundaki, olingan natijalar o‘zbek tili stilistikasi va matn lingvistikasi bo‘yicha o‘quv materiallarini boyitishda, shuningdek jurnalistika ta’limida matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kelajakda ritorik so‘roqning turli janrlar (intervyu, sharh, esse) kesimida qiyosiy-miqdoriy tahlili, shuningdek ijtimoiy tarmoq matnlaridagi o‘zgarishi alohida tadqiqot mavzusi bo‘la oladi.

Yakunda shuni ta’kidlash joizki, ritorik so‘roq gap - shunchaki grammatik hodisa emas, balki muallif bilan o‘quvchi o‘rtasidagi murakkab pragmatik ko‘prik.

Uni chuqurroq o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy jurnalistika, tahrirchilik va hatto ta’lim jarayoni uchun ham foydali bo‘lishi mumkin, chunki har bir savol ortida - o‘quvchiga aytilmagan, lekin sezdirilgan bir fikr yashiringan bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili. - Toshkent, 2010.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - Toshkent: Fan, 2008.
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
5. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. - Toshkent: Fan, 1996.
6. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. - Toshkent, 2018.
7. Jumaniyozov Sh.A. Tog‘ay Murod asarlarida ritorik-so‘roq gaplarning qo‘llanilishi // ilmiy maqola.
8. Jumaniyozov Sh.A. Muhammad Yusuf she’riyatida ritorik so‘roq gaplarning o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari, 2021.
9. Голуб И.Б. Стилистика русского языка. - М.: Айрис-пресс.
10. Прагматический потенциал вопросительных конструкций в заголовке публицистического текста (на материале интернет-СМИ) // КиберЛенинка.
11. Карамова А.А., Силантьева В.М. Риторический вопрос и риторическое восклицание в современном политическом дискурсе // Международный научный журнал «Инновационная наука». - 2016. - №3.